


Yanvar –sentyabr 2018 yil


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar – sentyabr oylarida 7821,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 foizga oshdi. Shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 152,2 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 104,3 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,2 foizni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati
(mlrd. so'm, foizda)**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahrining ulushi 34,1 foizni, Urgut tumani 18,6 foiz, Pastdarg'om tumani 9,2 foiz, Bulung'ur tumani 9,0 foiz va Kattako'rg'on shahri 8,0 foiz chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, (foizda)



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2086,2 ming so'mni tashkil etdi, 2017 yil yanvar-sentyabr oylarida 1699,6 ming so'mni tashkil qilgan edi.

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri 5262,8 ming so'm, Samarqand shahri 3678,1 ming so'm va Bulun'gur tumanida 2882,4 ming so'm kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 152168,8 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2086,2 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi. Shundan Samarqand shahri 3678,1 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 103,9 foizni, Kattaqo'rg'on shahri 5262,8 ming so'm va 103,2 foizni, Jomboy tumani 1395,2 ming so'm va 102,1 foizni, Samarqand tumani 1612,9 ming so'm va 107,7 foizni, Urgut tumani 2202,7 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 104,6 foizni tashkil qildi.




Hududlar nomi	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	2086,2	103,5
Samarqand sh.	3678,1	103,9
Kattaqo'rg'on sh.	5262,8	103,2
Bulung'ur	2882,4	101,9
Jomboy	1395,2	102,1
Ishtixon	1323,3	101,7
Kattaqo'rg'on	1306,5	102,4
Naripay	1503,7	105,8
Nurobod	2254,0	102,0
Oqdaryo	1580,3	102,8
Payariq	1335,1	103,3
Pastdarg'om	1556,7	101,9
Paxtachi	1816,7	103,4
Samarqand	1612,9	107,7
Tayloq	1288,8	104,5
Urgut	2202,7	104,6
Qo'shrabot	2257,6	103,2

KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,3 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 90,8 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 5305,5 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 67,8 foizni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi 1794,4 mlrd. so'mni, o'tgan yilga nisbatan 105,6 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 22,9 foizni tashkil etdi.